



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS**  
**OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 71-203-32-23, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz



2023-yil 28-dekabr

02/12-28-12-son

Oliy ta’lim muassasalari rektorlariga  
(ro‘yxat bo‘yicha)

**Xitoy OTMlarida 2024/2025-o‘quv yili  
davomida stajirovka o‘tash haqida**

Xitoy Xalq Respublikasi Ta’lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida 1999-yil 8-noyabrda imzolangan Bitimga muvofiq **2024/2025-o‘quv yili sentyabr oyidan boshlab XXR oliy ta’lim muassasalarida 10 oy davomida stajirovka o‘tash uchun (xitoy tili va xitoyshunoslik, turli muhandislik va texnika yo‘nalishlari) 16 ta stipendiya hamda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida 34 ta stipendiya, umumiy hisobda 50 ta stipendiya ajratildi.**

Xitoyda yashash va stajirovka o‘tash bilan bog‘liq barcha xarajatlar (viza, aviachiptalar muddatini uzaytirish, ortiqcha bagaj hamda Xitoyda tibbiy ko‘rikdan o‘tish to‘lovlaridan tashqari) Xitoy hukumati tomonidan qoplanadi.

Shu bilan birga stajirovka qatnashchilari uchun Toshkent-Pekin-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha aviachiptalar xarajatlari **(40 ta joy)** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qoplanadi.

**Qolgan 10 ta grant uchun aviachipta xarajatlari (borish-kelish) tegishli OTM yoki stajirovka qatnashchisi hisobidan qoplanadi** (ushbu ro‘yxat keyinroq, hujjatlar qayd etilib, Xitoy tomonidan qabul qilingandan so‘ng, shakllantiriladi.

Stajirovka uchun tavsiya etilganlar **yaqin 3 yil davomida Xitoy yoki boshqa xorijiy davlatlarning grant yoki stipendiyalarini olmaganlar** qatoridan tanlab olinishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga tanlovga boshlang‘ich va bitiruvchi kurslardan nomzod ko‘rsatish maqsadga muvofiq emas.

Shu bilan birga, stajirovka ishtirokchilari Xitoydan qaytgandan so‘ng bakalavriat, magistratura va doktorantura o‘quv dasturlariga kiritilgan barcha fanlarni o‘zlashtirishi shart. Ushbu talab Xitoyga qilinadigan safardan oldin muhokama qilinishi va OTM buyrug‘ida aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

K/R: V/M-1555

2023-yil 29-dekabr

## **Shu munosabat bilan:**

**I.** TDSHUdan **20** (yigirma), O‘zDJTUDan **12** (o‘n ikki), SamDChTidan **8** (sakkiz) nafardan nomzod ko‘rsatilishini so‘raymiz. Nomzodlar 2-3 kurs bakalavr va 1 kurs magistrantlar va 1-2 kurs doktorantlar orasidan tanlov asosida tavsiya etilishi kerak.

Shu bilan birga OTM va uning qoshidagi litseylarda xitoy tilidan dars berayotgan va so‘ngi 3 yil davomida Xitoyda stajirovkada bo‘lmagan yosh o‘qituvchilar ham tavsiya etilishi mumkin.

Ushbu oliy ta‘lim muassasalari tomonidan tavsiya etiladiganlar xitoy tili va adabiyoti, Xitoy tarixi va boshqa xitoyshunoslikka oid yo‘nalishlar bo‘yicha stajirovka o‘tashlari ko‘zda tutilgan. Shu sababli ushbu nomzodlar xitoy tilini talab darajasida bilishlari va Xitoy elchixonasi tomonidan tashkil etiladigan suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tganidan keyin qabul qilinadi.

OTMda o‘tkazilgan xitoy tili imtihon natijalari bo‘yicha tuzilgan bayonnoma hujjatlar bilan birga vazirlikka taqdim etilishi lozim.

**II.** Shu bilan birga FarPI, JizPI, AndMI, AndQXATI, TTYSI, NamMTI, BuxMTI, TDTU, QQXATI, **TKTI**, TAQI, SamDAQI, NamMQI, QarMII, QarIATI, TerMTI, NavDKTU, TDTrU, GFUdan 1 yoki 2 nafardan nomzod ko‘rsatishingizni so‘raymiz.

Ushbu badda ko‘rsatilgan nomzodlar uchun stajirovka ingliz tilida tashkil etiladi. Shu sababdan, ular **ingliz tilini yuqori darajada bilishi zarurligini alohida ta’kidlab o‘tamiz**. Ular bilan tanlangan tadqiqot mavzularining dolzarbligi va ingliz tilini bilish darajasini aniqlash maqsadida **Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligida imtihon o‘tkaziladi va nomzodlar 10 ta joyga ENG YUQORI BALL TO‘PLAGANLAR orasidan tanlab olinadi.**

Nomzod tanlash jarayonida muhandislik-texnik, aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishlariga urg‘u berilgan holda, **TANLOVGA IJTIMOY-SIYOSIY TA’LIM YO‘NALISHLARI KIRITILMAGAN.**

Shu bilan birga aytib o‘tish joizki **ingliz tili o‘qituvchilarini** Xitoyda stajirovka o‘tash uchun tavsiya etish ushbu stajirovka maqsadlariga javob bermaydi.

Ushbu nomzodlar yosh o‘qituvchilar va OTM xodimlari xamda oliy ta‘lim muassasasi bilan kelajakda o‘z faoliyatini bog‘lashga intilgan doktorantlar, erkin tadqiqotchilar orasidan tanlov asosida tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

**III.** Ushbu xatning **I va II bandlarida ko‘rsatilgan** barcha nomzodlar **3 (uch) nusxada** (asl nusxasi bilan birga) quyidagi hujjatlarni **2024-yil 10-FEVRALDAN kechiktirilmagan holda** vazirlikka topshiradilar:

1. Application Form for Chinese Government Scholarship (barcha nusxalarda rangli fotosurat bo‘lishi kerak);
2. Ingliz tiliga tarjima qilingan hamda ta‘lim muassasasining xalqaro aloqalar

bo'limi tomonidan tasdiqlangan diplom yoki reyting daftarchasi kopyalari;

3. Ikkita tavsiyanoma (Recommendation Letter), ingliz tilida;
4. Ilmiy ish mavzusi va rejasi (Research Plan) alohida varaqda tayyorlanib, ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim;
5. Xorijga chiqish pasport kopyasi;
6. Physical Examination Form – **3 nusxada** (asl nusxasi Xitoyga olib ketish uchun nomzodning o'zida saqlanadi);
7. Certificate of Test on Antibodies to HIV (OITS bo'yicha ingliz tilidagi ma'lumotnoma) – **3 nusxada** (asl nusxasi Xitoyga olib ketish uchun nomzodning o'zida saqlanadi).
8. Xitoy yoki ingliz tiliga tarjima qilingan hamda tasdiqlangan sudlanmaganlik to'g'risida ma'lumotnoma.

Anketalar quyidagi Internet-sayti (<http://www.csc.edu.cn/studyinchina> yoki <http://www.campuschina.org>) orqali to'ldirilib, printerdan chiqarilgan holda topshirilishi lozim.

**Ilava:**

- 1) Instructions for Chinese Government Scholarship Information System (CGSIS);
- 2) Chinese Government Scholarship Application;
- 3) Foreigner Physical Examination Form;
- 4) Toshkentdagi Xitoy elchixonasining rasmiy notasi.

Vazirning birinchi  
o'rinbosari



K. Karimov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil 28-dekabrda 02/12-28-12-raqamli xati yuboriladigan  
**OTMLar ro'yxati**

1. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (xitoy tili)
2. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (xitoy tili)
3. Samarqand davlat chet tillar instituti (xitoy tili)
4. Farg'ona politexnika instituti
5. Jizzax politexnika instituti
6. Andijon mashinasozlik instituti
7. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
8. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
9. Namangan muhandislik-texnologiya instituti
10. Namangan muhandislik-qurilish instituti
11. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
12. Toshkent davlat texnika universiteti
13. Termiz muhandislik-texnologiya instituti
14. Toshkent kimyo-texnologiya instituti
15. Toshkent davlat transport universiteti
16. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
17. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
18. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
19. Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
20. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
21. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
22. Geologiya fanlari universiteti